



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish haqi**

**2018 yil yanvar-mart** (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- ta'limda 20841 ta muassasada 982,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 38,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 3627,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 30,6 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1230,6 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 14,8 %ga o'sdi;

- sanoatda 631 ta korxonada 454,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,8 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 3157,9 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 26,7 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2315,7 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 27,5 %ga o'sdi;

- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1441 ta muassasada 425,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,7 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1311,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 11,1 %ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1027,8 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 14,3 %ga o'sdi;

- tashish va saqlashda 204 ta korxonada 113,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 4,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 716,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 6,0 %ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2101,9 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 21,1 %ga o'sdi;

- moliyaviy va sug'urta faoliyatida 143 ta muassasada 67,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,7 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 563,2 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,8 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2774,8 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 28,6 %ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 548,3 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **20,1 %** ga o'sishni ta'minladi.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi**  
(2018 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, ming kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Respublika bo'yicha - jami</b>	<b>57 661</b>	<b>2 548,6</b>	<b>11 838,1</b>	<b>1 548,3</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	631	454,6	3 157,9	2 315,7
Qurilish	172	44,4	240,1	1 803,8
Savdo	490	55,8	268,4	1 603,1
Tashish va saqlash	204	113,6	716,0	2 101,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	152	6,5	22,5	1 149,3
Axborot va aloqa	232	28,7	234,4	2 722,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	143	67,7	563,2	2 774,8
Ta'lim	20 841	982,5	3 627,1	1 230,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 441	425,3	1 311,3	1 027,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2 119	27,0	119,8	1 477,0
Boshqa faoliyat turlari	31 236	342,7	1 403,2	1 365,1

2018 yil yanvar-mart oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqada 28,9 %, moliyaviy va sug'ruta faoliyatida 28,6 %, sanoatda 27,5 %, qurilishda 24,8 % kuzatildi.

2018 yil yanvar-mart oylarida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 74,5 %ga, axborot va aloqada 81,0 %ga, sanoatda 82,5 %ga, tashish va saqlashda 81,5 %ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 71,7 %ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 25,8 % ga, ta'limda 20,5 %ga respublikadan kamni tashkil etmoqda.




### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **2 129,9** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **137,6** %), Navoiy viloyatida **2 118,8** ming so'mni (**136,8** %) va Toshkent viloyatida **1 686,7** ming so'mni (**108,9** %) tashkil etgan bo'lsa, Namangan viloyatida **1 223,9** ming so'mni (**79,0** %), Samarqand viloyatida **1 234,8** ming so'mni (**79,8** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2018 yil yanvar-mart, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-mart oylarida **426,5** ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>1288,9</b>	<b>1548,3</b>	<b>120,1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1236,6	1531,6	123,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1165,0	1426,1	122,4
Buxoro	1280,8	1452,4	113,4
Jizzax	1153,9	1351,9	117,2
Qashqadaryo	1203,4	1387,2	115,3
Navoiy	1786,7	2118,8	118,6
Namangan	1031,7	1223,9	118,6
Samarqand	1070,8	1234,8	115,3
Surxandaryo	1059,8	1266,7	119,5
Sirdaryo	1121,8	1342,6	119,7
Toshkent	1361,3	1686,7	123,9
Farg'ona	1105,2	1285,7	116,3
Xorazm	1077,3	1288,1	119,6
Toshkent sh.	1693,1	2129,9	125,8



**Davlat statistika qo'mitasining  
Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

**B.Shodiyev**  
(71) 230-80-65